

KREATIV TOPSHIRIQLAR ASOSIDA INTELLEKTUAL AVTONOMIYA VA PEDAGOGIK ERUDITSIYANI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Maxammatova Ma’muraxon Jalilovna
Andijon davlat pedagogika instituti,
Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti, (PhD)
Email: mahammatova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19456058>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi kreativ topshiriqlar asosida intellektual avtonomiya va pedagogik eruditsiyani rivojlantirish texnologiyalarning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi. Shuningdek, kreativ topshiriqlarning ta’lim jarayonini faollashtirishdagi o’rni, ularning pedagogik eruditsiyasini boyitish va o’quvchilarda mustaqil fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Kalit so’zlar: *kreativ topshiriqlar, intellektual avtonomiya, pedagogik eruditsiya, kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish*

So’nggi yillarda mamlakatimizning ta’lim tizimida eski yondashuvlardan voz kechilib, yangicha tamoyillarga, milliy qadriyat va an’analarimizga, jahon mamlakatlarining ilg’or tajribasiga asoslangan holda, hayotimizni tubdan o’zgartirish, davomli maqsadlarni amalga oshirish uchun ta’lim va tarbiya sohasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” degan so’zlarida o’z aksini ko’rishimiz mumkin. Yangi yangi g’oyalarni generatsiyalay oladigan, tahliliy fikrlash orqali umumiy qabul qilingan g’oyalar ortidan ergashmasdan, o’z nuqtai nazariga ega bo’lgan, uni himoya qila oladigan, boshqalarning fikrini tanqidiy tahlil qilib va baholaydigan, ijodkorlik hamda kreativlik qobiliyatlarini o’zida namoyon eta oladigan yoshlarga bugungi kundagi fan va texnikaning rivojlanishi va ularning oldida tobora murakkablashib borayotgan muammolarni hal qilishga qodir shaxslarni tarbiyalash zaruriyati muhim sanalmoqda.

Shuningdek, 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan “Harakatlar strategiyasi PF-4947 farmonida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, tanqidiy fikrlash va innovatsion yondashuvlar ustuvor vazifa sifatida belgilangan va “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 2022-2026 PF-60 farmonida ta’lim sohasida quyidagi vazifalar belgilangan:

- kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish
- innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish
- yoshlarning ilmiy-ijodiy faoliyatini qo’llab-quvvatlash
- zamonaviy kompetensiyalarga ega kadrlar tayyorlash bu strategiya intellektual avtonomiya va kreativ ta’lim muhitini rivojlantirish uchun huquqiy asos hisoblanadi.

Kreativ topshiriqlar asosida intellektual avtonomiya tushunchasi bu o’quvchilarning mustaqil fikrlashi, yangi g’oyalarni ishlab chiqishi, muammoni o’zi hal qila olishi va so’ngi qarorni qabul qila olish qobiliyatini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi.

Pedagogik eruditsiya atamasi esa, bu o’qituvchining pedagogika, psixologiya, metodika, madaniyat va boshqa sohalar bo’yicha keng bilimga ega bo’lishi, bilimlarni chuqur tushunishi hamda ularni ta’lim jarayonida ijodiy qo’llay olish qobiliyati hisoblanadi. Pedagogik eruditsiya

o’qiyuvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki uning fikrlash kengligi, ilmiy dunyoqarashi va intellektual salohiyati bilan ham belgilanadi.

Ikki atama bo’yicha jahon olimlarining nazariyalarini ko’rib chiqamiz:

J.Piaget nazariyasiga muvofiq, o’quvchilar bilimni tayyor holda qabul qilishmaydi, balki faol fikrlash jarayonida mustaqil ravishda quradi. Buning natijasida bola mustaqil fikrlashi muammoni o’zi hal qila olish qobiliyati yuksaladi, kreativ topshiriqlar asosida o’quvchi muammoni analiz, sintez va baholash jarayoniga jalb qiladi va so’ngida mustaqil qaror qabul qilib natijaga erishadi.

L.Vygotskiy nazariyasida esa, ta’lim jarayonida ijtimoiy muhit va hamkorlik muhimligini ta’kidlaydi. Bunga ko’ra u “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasini ilgari suradi va kreativ topshiriqlar orqali o’quvchi yoki talaba murakkab vazifalarni o’qituvchi yoki guruh yordamida bajaradi va asta sekin mustaqil fikrlashga o’tadi natijada intellektual avtonomiyani shakllantiradi.

Konstantin Ushinskiyning pedagog shaxsining bilim darajasi ta’lim sifatini belgilashini ta’kidlaydi.

✓ O’qituvchi har tomonlama bilimli va madaniyatli bo’lishi kerak.

✓ Pedagogik faqat o’z fanini emas, balki inson psixologiyasi va jamiyatni ham yaxshi bilishi zarur.

✓ Uning fikricha, pedagogning eruditsiyasi o’quvchilarning shaxs sifatida rivojlashiga bevosita ta’sir qiladi.

H.Gardnerning nazariyasining pedagogik eruditsiya bilan bog’liqligi bu kreativ topshiriqlar turli intellekt turlarini rivojlantiradi va pedagog turli metodlarni qo’llash orqali fanlararo bilim va metodik eruditsiyasini kengaytiradi.

Innovatsion pedagogika nazariyasi Vasily Sukhomlinskyning fikriga ko’ra, pedagog doimiy ravishda yangi metodlar va kreativ yondashuvlarni izlab topishi kerak, kreativ topshiriqlar pedagogik faoliyatni ijodiy jarayonga aylantiradi va bu jarayon pedagogning eruditsiyasini va professional mahoratini oshiradi degan nazariyani ilgari suradi.

O’zbek olimlarimizdan A.Avloniyning qarashlariga nazar solsak, u ham o’zining pedagogik asarlarida o’qituvchi shaxsining bilimdonligi va ma’naviy yetukligiga alohida e’tibor qaratgan va o’qituvchining ilmiy saviyasi va dunyoqarashi o’quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda muhim ro’l oynaydi deb fikr yuritgan. B.Xodjayevning qarashlarida esa, pedagogik kompetensiya va innovatsion ta’lim muammolarini tadbiiq etgan. Uning fikricha

✓ Pedagogning professional faoliyatida kreativ fikrlash va innovatsion yondashu muhim ahamiyat kasb etadi.

✓ O’qituvchi pedagogik muammolarni tahlil qilish va yangi metodlardan foydalana olish qobiliyati mavjud bo’lishi

✓ Bu jarayon pedagogik eruditsiyani rivojlanishiga olib keladi deb ta’kidlaydi.

Quyidagi olimlarning nazariyalaridan kelib chiqib xulosa qilsak, o’qituvchi va o’quvchining komfort zonada qolib ketmasligi, uning o’z ustida ishlashi, zamonaviy yondashuvlarni o’zlashtirishini ko’rsatadi. Ta’lim jarayonida o’quvchilar bilimni tayyor holda qabul qilmasligini ularni erkin faol fikrlashga undashi, ularning kreativ topshiriqlar asosida intellektlarini rivojlantirishga qaratilgan va pedagoglardan ham turli metodlarni qo’llash orqali fanlararo bilimlarini turli vaziyatda qo’llay olishi hamda bu bilimlarni talaba o’quvchilarga o’rgatishi ilgari surilgan.

Kreativ topshiriqlar asosida intellektual avtonomiya nostandart vaziyatlarda talabalarning o’zining erkin fikri ya’ni tashqi ta’sirlardan, ommaviy fikr yoki an’analardan qat’i nazar, mustaqil fikrlashi, tahlil qilishi va o’z xulosalariga ega bo’lishi hisoblanadi. Pedagogik eruditsiya esa, bu topshiriqlarga pedagogning reaksiyasi ya’ni ma’lumotlarni qayta ishlay olishi, muammoli vaziyatga o’zining tavsiyasini bera olishi hamda bu bilimlarni yosh kadrlarga o’rgatishini talab

qiladi. Kreativ topshiriqlar orqali intellektual avtonomiya va pedagogik eruditsiyani rivojlantirish - talaba yoki pedagogning shunchaki ma’lumot to‘plab borishi emas, balki uni mustaqil tahlil qilishi va nostandart vaziyatlarda qo‘llay olishi hisoblanadi, buni shakllantirish uchun turli vaziyatlardagi muammolar beriladi:

- o‘zining muammoga munosabati
- bu muammoni yechimiga model yaratishi
- “Nima uchun bu yechimni tanlaganligi” haqida fikr yuritadi

Pedagogik eruditsiyani rivojlantirish bu faqat o‘z fanini bilish emas, balki fanlararo bog‘liqlikni va madaniy kontekstni tushunishdir.

- tarixiy shaxslar yoki buyuk pedagoglarning kutilmagan qarorlarini tahlil qilish.
- bir mavzuni ikki xil qarama-qarshi nuqtai nazardan (masalan, an’anaviy va innovatsion)

asoslab berish.

- pedagogik hodisani san’at, texnika yoki tabiat qonuniyatlari bilan bog‘lash orqali rivojlantirishimiz mumkin va natijada pedagog faqatgina dars o‘tib qolmay, balki bilimlarni transformatsiya qilish imkoniga ega bo‘ladi.

Xulosa tarzida, bugungi rivojlanayotgan mamlakatimizga har tomonlama yetuk, o‘z fikri, dunyoqarashiga ega, salohiyatli, bilimlarini ulasha oladigan, muammoli vaziyatlarni tahlil qilib o‘z qarorini qabul qila oladigan va jahon hamjamiyati kadrlariga tenglasha oladigan yetuk mutaxassislar talab etilmoqda. Kreativ topshiriqlar asosida intellektual avtonomiya va pedagogik eruditsiyani rivojlantirish texnologiyalari bilimlarni oddiy qabul qilishdan ko‘ra talabalarning mustaqil fikrlashiga, muammoli vaziyatlarga o‘zlari yechim topishga hamda ta’lim jarayonini faollashtirishga qaratilgan hisoblanadi va pedagoglardan ham o‘zlarining fikrlari, bilimlarning kengaytirilishi noodatiy holatlarda mustaqil fikrini bildira olishi hamda bu vaziyatlarga yechim topib, bo‘lajak kadrlar va o‘quvchilarda bu bilimlarga kompetensiyasini oshira olishi qobiliyati yotadi. Bularning barchasi ta’lim sifati samaradorligini oshirishga pedagoglar hamda o‘quvchi talabalarning salohiyatini o‘shirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” nomli asari 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan “Harakatlar strategiyasi PF-4947 farmonida
- 3.”Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 2022-2026 PF-60 farmoni
- 4.Piaget, J. (1973). *To Understand Is to Invent: The Future of Education*. New York: Basic Books.
- 5.Выготский Л. С. (1934). *Мышление и речь*. Москва: Соцэкгиз.
- 6.УШИНСКИЙ К. Д. (1867). *Человек как предмет воспитания. Опыт педагогической антропологии*. (Inson tarbiya obyekti sifatida. Pedagogik antropologiya tajribasi).
- 7.Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. New York: Basic Books. (Intellekt turlari birinchi marta tizimlashtirilgan asar).
- 8.Сухомлинский В. А. (1969). *Павлышская средняя школа*. (Pavlish o‘rta maktabi)
- 9.Abdulla Avloniy. (1913). *Turkiy Guliston yoxud axloq*. (Ushbu asarda muallif "Fikr tarbiyasi" bo‘limida
- 10.Xodjajev B.X. (2017). *Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishning nazariy-metodik asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.